

**O'ZBEK BALETINING SHAKLLANISHIDA BERNORA
QORIYEVA O'RNI**

*Saparbayev Atabek Sharipbayevich
O'zDXA Urganch filiali katta o'qituvchisi
Xudayberganova To'xtajon
"Lazgi" bo'limi kichik ilmiy xodimi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek baletining ohangrabodek joziba kuchi va o'zbek baletining shakllanishida katta hissa qo'shgan ajoyib baletmeyster Bernora Qoriyevaning raqlari, o'zbek baletdagi o'rni haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: balet, "Kashmir qo'shig'i", klassik raqs, raqs texnikasi, san'atkor, kompozitor.

**РОЛЬ БЕРНОРЫ КАРИЕВОЙ В СТАНОВЛЕНИИ
УЗБЕКСКОГО БАЛЕТА**

*Сапарбаев Атабек Шарипбаевич
Старший преподаватель Ургенчского филиала UzDXA
Худойберганова Тохмаджон
Младший научный сотрудник отдела "Лазги"*

Аннотация: В этой статье будет представлена информация о силе тонального очарования узбекского балета и танцах выдающегося балетмейстера берноры Кариевой, внесшей большой вклад в становление узбекского балета, о роли узбекского балета в балете.

Ключевые слова: балет, "Кашмир кушиги", классический танец, танцевальная техника, артист, композитор.

**THE ROLE OF BERNORA KARIEVA IN THE FORMATION OF
UZBEK BALLET**

*Saparbayev Atabek Sharipbayevich
Senior teacher of the Urganch branch of UzDXA
Khudaiberganova Tokhtajon
Junior researcher of "Lazgi" department*

Annotation: this article will tell you about the charm of Uzbek ballet as melonrabodek and the dances of the wonderful ballet master Bernora Kariyeva, who made a great contribution to the formation of Uzbek ballet, about her place in Uzbek ballet.

Keywords: ballet, "Kashmir koshig'i", classical dance, dance technique, artist, composer.

Go‘zallik dunyosi insonning shaxsiyatini doimo boyitishi va yuksaltirishi haqida gapirganimizda O‘zbek baleti hayolimizga keladi. O‘zbek baleti – milliy badiiy madaniyatimizning faxri hisoblanadi. O‘zbek baleti o‘tgan asrning 50-60 – yillarida baletning ardoqli, eng kuchli truppalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston baletining solistlari va baletmeysterlarini tomoshabinlar hayajonlanib, dil-dildan olqishlaganlari ham, har bir balet spektaklini samimi kutib olishlari ham, uchrashuvlarda, gazeta jurnallar sahifalarida ijrochilarimizga bergen odilona baholari ham fikrimizni to‘laligicha isbotlaydi.

Shu o‘rinda o‘rinli bir savol tug‘iladi, o‘zbek baletining ohangrabodek joziba kuchi nimada? Uning hamma sahnalarda ham birdek muvaffaqiyat qozonishining siri nimada? To‘g‘ri, yuksak raqs texnikasini mukammal o‘zlashtirish va kishini hayratda qolarli darajada nozik va nafis harakatlar qilish ham muvaffaqiyat qozonishning bir siridir. O‘zbek baletining jozibadorligi bugina emas, balki o‘zbek raqs san’atining namoyandalari azaldan raqs texnikasini egallagani va nafis shakllar yaratish borasida tengsiz “sehrgar” bo‘lganliklaridadir. Demak, mamlakatimizdagi millionlab talabchan, serzavq, badiiy didi baland tomoshabinlarning, shuningdek, chet ellik san’at muxlislarining qalbini faqat o‘zida katta hayotiy mazmunni, yuksak ezgu niyatlarni, beg‘ubor tuyg‘u va axloqiy g‘oyalarni aks ettirgan, go‘zallikni, hayot haqiqatini, ilhombaxsh sevgi sehrini mujassamlashtirgan san’atgina zabit eta oladi. O‘zbek baletining bunchalik maftunkor joziba kuchiga ega bo‘lishi xalq artisti ajoyib balerina Bernora Rahimovna Qoriyevaning nomi va ijodi bilan bog‘liqdir.

“Bernora Qoriyeva 1936-yil 28-yanvarda Toshkent shahrida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Rahim Majidovich Qoriyev oilasida dunyoga kelgan. Yosh balerina Toshkent xoreografiya maktabini va Moskva xoreografiya oliy maktabini tugatgandan so‘ng, ya’ni 1955-yildan Navoiy nomidagi opera va balet teatrinda baletmeyster sifatida faoliyat olib boradi. 1985—1998 yillarda O‘zbekiston teatr arboblari uyushmasi raisi, 1994—2002-yillar Navoiy nomidagi opera va balet teatri direktori va badiiy rahbari sifatida faoliyat olib boradi. Bernara Qoriyeva repertuari asosini jahon mumtoz va zamonaviy baletlar tashkil qiladi”¹. Raqqosaning bosib o‘tgan san’atkorlik yo‘li o‘zbek baletining yaqin o‘tmishi va buguni, uning istiqboli in’ikosidir. Bu yo‘l hayotbaxsh, ilhombaxsh ruhi bilan yo‘g‘rilgan san’at yo‘lidir.

Bernora Qoriyeva raqlarini ta’riflash ancha mushkul. Uning raqsini faqat ko‘rish, bir kitob yanglig“ “o‘qiy bilish”, faqat yurak bilan his qilish kerak. Gazetxonlar va tomoshabinlar ichida kimki Bernora raqsini ko‘rgan bo‘lsa, u ko‘rgan raqs ma’nosini, mazmunini bir umr esdan chiqarmaydi. Bernara Qoriyeva raqsining o‘ziga xos tomonlari bor. Bu takrorlanmas jo‘shqinlik, teran samimiylilik, ilhombaxshlikdir. Inkor etmaymiz: bizda klassik raqsga tushish texnikasini chuqur egallagan, uning

¹ S.Sagatov, M.Muxamedova O‘zbekiston madaniyatasi va san’ati fidoyilari, T2019.

sirlarini uqqan balerinalar kam emas. Ammo eng mumtoz san'atkorgina klassik raqsning barcha texnikasini, nozikligini to'laligicha, bosh maqsadga musiqada, librettoda mujassamlashtirilgan g'oyani va bosh obrazni ochishga bo'ysundira oladi. Bernora Qoriyeva xuddi shunday mohir san'atkor.

Bernora Qoriyeva Moskva Akademik xoreografiya bilim yurtini bitirib, katta san'at yo'liga kirib, endigina kordebaletda ko'zga tashlanayotgan kezlarida 1957-yilda Moskvada o'tkazilgan klassik raqlarni ijob etuvchi yosh balerinalarning ko'rik tanlovida ishtirok etadi va kumush medal olishga muyassar bo'ladi. Ko'rik tanlovning hakami, Mehnat Qahramoni, Galina Ulanova yosh balet yakkaxonining "Shopennoma"dagi ijrosini ko'rib shunday: "Klassik raqsning mustahkam zaminini egallagani va unga yuksak badiiy didni uyg'unlashtira bilganligi O'zbekistondan kelgan yosh balerina ijodiy yuzini yorqin ko'rsatishga imkon berdi" ² – deb e'tirof etadi

Shundan so'ng oradan vaqtlar o'tdi, katta ijodiy yo'l orqada qoldi, boy tajriba orttirildi, uning ijodiy qiyofasi shakllandi, o'z ijob uslubiga ega san'atkor bo'lib yetishdi. Ha, har bir kun, har bir yil mahorat cho'qqisi sari ijod pillapoyasi bo'ldi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik Katta teatri sahnasida o'nlab obrazlar yaratdi. Bu obrazlarga mohir balerinaning umri, yoshligi, muhabbati baxshida etilgan. "Men odamlarga nimani aytmoqchi bo'lsam, raqs tilida gapiraman. Chunki o'yinlarimga o'z fikr-tushunchalarimni jo qilaman", - degan edi balenora.

Bernora Qoriyeva jahon klassik asarlari, o'zbek baletida sahnaga chiqib goh Jizel yoki Avrora goh Odetta Odillya yoki Zolushka, Kitri yoki Frigiya, Nurxon yoki Zarina, Mehri yoki Sonni, Nargiz kabi bosh rollarda o'ynar ekan, uning ijrosi yuksakligi, xoreografik mahoratining zamonga ohangdoshligi bilan ajralib turgan.

Bernora Qoriyeva O'zbek xalqining atoqli yozuvchisi, Davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning hind xalqining afsonalaridan olib yozilgan "Kashmir qo'shig'i" asaridagi Nargiz obrazining talqiniga kirishar ekan, undagi satrlarga jiddiy e'tibor beradi, muallif so'zidan kelib chiqqan harakatda raqs ifodasini izlaydi.

Kompozitor Ulug'bek Musasaning "Afsonalar vodiysida" baletida haqiqatan ham, Nargiz sahnada birinchi ko'rinishdanoq ko'zni qamashtirarli darajada yorqin, uning variatsiyasi Nargizning extirosli, quvnoq ruhiyatini ifodalaydi. Nargiz obrazini aktrisa balet boshlanishidan tortib, barcha keyingi sahnalarda ham go'zallik timsoli, asrlar osha odamlarni baxt va erkinlikni ardoqlash uchun ilhomlantiruvchi, jasoratga undovchi, nafosat va sevgi timsoli sifatida talqin qiladi.

U ijob etgan har bir partiyada insonni, uning ichki dunyosini to'laligicha ochishga intilgan. Har bir spektaklni tomosha qilgan ixlosmandlar yanada olijanob, go'zal, oqibatli bo'lib qolishlariga, o'rtalaridagi do'stlik va mehr-oqibatni avaylashlariga chorlagan. Aktrisa yaratgan biri-biridan jozibali, bir-biridan ta'sirli turli davrga mansub, turli taqdirga ega bo'lgan sahnaviy obrazlar ko'z oldimizda namoyon bo'lar ekan, haqiqatan ham Bernora Qoriyeva yuqoridagi so'zlariga sodiq qolayotgan

² "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 1970.

san'atkor ekanligiga ishonasiz. Aktrisaning har bir obrazi jonli portret, har bir obrazi o‘z ichki dunyosiga ega, o‘z quvonchlari va tashvishlari, hayotga o‘z shaxsiy qarashlari bilan ko‘zga yorqin tashlanadi.

Aktrisa Tixon Xrennikovning “Muhabbatga muhabbat” asari asosida baletmeyster Ibrohim Yusupov sahnalashtirgan badiiy jihatdan yorqin, diqqatga sazovar nafis Gerro obrazini yaratdi. Koris va qahramonining plastik teksti, uning yoshlik xarakteri balerina bilan baletmeysterning birgalikdagi o‘y-mulohazalarining ibratli natijasidir. Shu o‘rinda, hamkorlik borasida Ibrohim Yusupovning qaydini keltiramiz: “...Bernora Qoriyeva bilan balet spektakli yaratish juda maroqli, u juda berilib ishlaydi, natijada ish yengil kechadi. Baletmeyster aytmoqchi bo‘lgan uqtirishni bir imo, bir so‘zdayoq ilg‘ab oladi. Uning qalbida qirg‘oqqa uring turgan jo‘shqin fantaziya dengizi bor. Bernora bilan ishlashning murakkab tomoni ham borligi sir emas; U tinimsiz izlanuvchi san’atkor. Shunday vaqtlar ham bo‘ladi: nazarimizda, rol ustidagi ishimizni nihoyasiga yetkazgan bo‘lamiz, plastik matn yod bo‘lib ham ketadi, lekin Bernora hamon yangi ifoda vositalarini, yangi shtrixlarni qidirishdan to‘xtamaydi. Raqs partiturasiga yangi bo‘yoqlar kiritadi. To‘gri, bu qo‘srimchalar unchalik katta, unchalik ilg‘ab olinadigan bo‘lmasada, keyinroq bu tahrir yangi spektaklga sayqal berishini, zaruriy kiritilganini tushunib mammun bo‘lasiz”³.

Doimiy ijodiy notinchlik, o‘z ishidan to‘la qanoatlanmaslik, muttasil izlanish ruhi, u yo bu o‘ynaladigan partiyada o‘z so‘zini aytish uchun intilish, obraz uchun takrorlanmas, original tasvir topish kabi ijodiy fazilatlarni R. Vildanovning “Zaharli hayot”, “Begona” va “Elegiya” baletlari ustida olib borgan ishlarida ham yaqqol ko‘ramiz. Bernoraning o‘ynagan har bir roli alohida haqiqatdir. Bularda balenororaning ijodiy prinsiplariga taalluqli haqiqat jilolanib turadi.

O‘zbek baletining faxri Bernora Qoriyeva bugungi kunda O‘zbekiston davlat xoriografiya akademiyasida talaba yoshlarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga hozirgi zamon balet san’atining o‘tkir bilimdonlarini, mohir ijrochilarini, jonkuyar targ‘ibotchilarini yetishtirishda o‘z xissasini qo‘shib kelmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.Sagatov, M.Muxamedova Ozbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari, T 2019.
2. M.Tursunxodjayeva Bernara luchezarnaya. Opa-singil suhbati, yoxud ayol nazdida,T 1990.
3. L.Avdeyeva Balet Uzbekistana.Adabiyot va san’at nashriyoti.T 1973

³ L.Avdeyeva Balet Uzbekistana. Adabiyot va san’at nashriyoti. T 1973